



**HUKMNING MULKIY UNDIRISHLAR QISMI TO'G'RISIDAGI IJROSINI
TA'MINLASH, MOL-MULKNI XATLASH, REABILITATSIYA, PROTSESSUAL
MUDDATLAR VA CHIQIMLAR AMAVZUSI DOIRASIDA XORIJIY DAVLAT
QONUNCHILIGI BILAN TAHLIL, XORIJIY DAVLAT MISOLIDA ITALIYA**

Imomaliyeva Sevinchbonu Azizxon qizi

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti "Xalqaro huquq" fakulteti 2-kurs
talabasi Tel: +998 (88) 074-17-45 e-pochta : sevinchbonu487sv@gamil.com*

Agar protsess davomida ayblanuvchi o'z mulkni yashirsa, sotib yuborsa yoki yo'q qilsa, hukm ijrosini ta'minlab bo'lmaydi shu sababli prokuror yoki da'vogar ehtiyot chorasi sifatida mulkka band solishni ya'ni xatlashni so'rashi mumkin. Ya'ni prokuror davlat manfaati, uchun fuqaroviy da'vogar esa shaxsiy manfaati uchun buni talab qilishi mumkin. Xatlov faqat qonun bilan qaratilishi mumkin bo'lgan belgilangan doirada amalga oshiriladi, ya'ni yashash uchun zarur bo'lgan eng karakli narsalarga qaratilmasligi kerak. Lekin bizning qonunchilikda agar shaxs konstitutsiyaviy tuzumga qarshi, qasddan odam o'ldirish, bosqinchilik, O'zbekiston Prezidentiga tajovuz qilish va boshqa jinoyatlarni sodir etsa kiyim, uy anjomlari, jihozlar va boshqalar ham xatlanishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Ushbu obyektlarga ayblanuvchi yoki fuqaroviy javobgarining ko'char va ko'chmas mulki, pul aktivlar va boshqalar misol bo'lishi mumkin. Italiya jinoyat protsessual kodeksiga ko'ra to'lov navbati bo'yicha davlat jarimalari va jabrlanuvchining zararini qoplash birinchi o'rinda lekin soliqni to'lash majburiyati mustasno bo'ladi.

Prokuror yoki fuqaroviy da'vogarning iltimosini qanoatlantirish bo'yicha sud ajrim chiqaradi. Xatlovning ijrosini esa sud ijrochisi amalga oshiradi. Agar sud oqlov hukmi chiqarsa yoki ishni tugatsa unda xatlovning huquqiy asosi yo'qoladi va prokuror ko'chmas mulkni reestrda taqiqlarni o'chirish majburiyati yuklanadi. Agar prokuror ushbu harakatni amalga oshirmasa, manfaatdor shaxs shikoyat qilishi mumkin. 318-moddaga muvofiq esa qayta ko'rib chiqish huquqi keltirilgan, bu albatta xatlovning qonuniyligini qaytadan tekshirish imkoniyatidir, lekin ajrimni ko'rib chiqish paytida uning ijrosi to'xtatib qo'yilmaydi. 319-moddaga muvofiq, agar zarar uchun fuqaroviy javobgar 316-modda keltirilgan qarzdorlikni kafolatlash uchun garov taklif qilsa ya'ni collateral deb ataladi, sud xatlovni amalga oshirmaslik va garovni taqdim etish tartibini belgilash bo'yicha ajrim chiqaradi. Agar ushbu taklif xatlovni qaytadan ko'rib chiqish iltimosnomasi bilan birga taqdim etilgan bo'lsa, unda sud ushbu garov obyektini munosib topsa, unda xatlovni bekor qilishi mumkin. Bu huquq kassatsiyadan tashqari har qanday bosqichda berilishi va sud xatlovni bekor qilishi mumkin. Xatlangan mulkni sotishdan va garov sifatida qo'yilgan jarimalar o'tkazilmagan taqdirda to'lovlar avval fuqaroviy da'vogarga yetkazilgan zarar, pul jarimalari va sud ishini yurtish xarajatlari va davlat oldidagi boshqa har qanday qarzdorliklar qoplanadi. Ikkala davlatda ham bu masala bo'yicha sud ajrimi chiqariladi, lekin bitta farqi

O'zbekistonda agar ish kecchiktirib bo'maydiga bo'lsa sudning ruxsatisiz ham xatlanishi mumkin lekin 24 soat ichida bu haqida sudga xabar berilishi kerak. Italiya tizimida 319-moddaga muvofiq agar shaxs garov taklif qilsa unda sud xatlovi amalga oshirilmasligi va ajrim bekor qilinishi mumkin, lekin bizda bu norma aniq mexanizatsiyalashtirilmagan. Ikkala tizimda ham normal turmush sharotini ta'minlash uchun zarur bo'lgan minimal uy-joy va ashyolarni xatlash man etiladi, ya'ni xatlov qonun bilan belgilangan undiruv doirasida amalga oshirilishi kerak. Bundan tashqari xatlangan mulk hisobidan birinchi navbatda jabrlanuvchi va davlat jarimalari qoplanadi, lekin Italiya tizimida soliq majburiyatlari har qanday xatlovdan ustun turishini alohida ta'kidlab o'tgan. O'zbekistonda baholash tizimi aniq taribga solingan, ya'ni bozor narxida baholanadi, belgilangan taribda professional baholovchi ham jalb qilinadi, ayblanuvchiga esa qaysi mulkini birinchi bo'lib xatlashni tanlash huquqi ham berilishi mumkin. Italiyada esa bu mutanosiblik tamoyiliga asoslanadi ko'proq, baholash normasi sud ijrochisiga bog'liq bo'ladi, garov taklif qilinganda esa xatlanadiga mulk qiymatiga mos keelishi tekshiriladi. Xatlovning bekor qilinishida ko'chmas mulkni reestrndan chiqarishda prokuorning shaxsan o'zi mas'ul, bizda esa bu ko'proq avtomatlashtirilgan.

O'zbekistondagi tizim bilan tahlil qiladigan bo'lsak, Italiya tizimida fuqaroviy da'vo bo'yicha ta'ovlarni kafolatlash uchun conservative seizur qo'llaniladi, O'zbekistonda ham shunday 290-moddaga ko'ra²¹, lekin qo'shimcha ravishda ashyoviy dalillarni yo'q qilinishi, shikastlanishi va boshqalarni oldini olish uchun ham xatlov o'tkaziladi, lekin aynan shu jihatdan o'tkaziladigan xatlov Italiyada preventive seizure ya'ni oldini olish bo'yicha xatlov, bu ashyoviy dalillarni yo'q qilinishi oldini olish uchun qo'llaniladi.

Italiya Criminal Procedure Codening 172-moddasiga ko'ra, muddatlar soatlar, kunlar, oylar yoki yillar bilan hisoblanadi. Muddatlar umumiy calendar bo'yicha hisblanib, agar kunlar bilan hisoblanadigan muddatning tugashi dam olish yoki bayram kunlariga to'g'ri kelsa, unda ushbu muddat keying ish kunigacha uzaytiriladi. Agar qonunda boshqa tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, unda muddatni hisoblashda uning oxirgi soati yoki kuni hisoblanadi. Agar faqat yakuniy muddat belgilangan bo'lsa unda ushbu muddat butun vaqt birliklarini o'z ichiga oladi. Ushbu moddaning 6-bandiga ko'ra sud idorasida ariza yoki ko'rsatma berish, dalillarni topshirish yoki boshqa harakatlarni amalga oshirish muddati ushbu idora o'z nizomiga ko'ra fuqarolar uchun yopiladiga vaqtda tugagan hisoblanadi.

173-moddaga muvofiq, muddatlar qaysi tarafning foydasiga belgilangan bo'lsa, o'sha taraf sud devonxonasiga ariza topshirish orqali ushbu muddatni qisqartirishi yoki bunga rozilk berishi mumkin. Ya'ni bu bilan agar ayblanuvchiga hujjatlar bilan tanishish uchun 5 kun vaqt berilgan bo'lsa va agar men 2 kunda tanishib chiqdim, deb muddatni qisqartirishi mumkin. 174-moddaga muvofiq, muddatlarni uzaytirishimiz mumkin: agar protsess ishtirokchisi aytaylik, ayblanuvchi ish yuritilayotgan sudning ma'muriy-hududiy birligidan uzoqda istiqomat qilsa uni sudda hozir bo'lishi uchun qo'shimcha vaqt beriladi. Agar

²¹ <https://lex.uz/mact/-111460?ONDATE=01.04.1995%2000#-253758::~text=290%2Dmodda.%20Mol,bo%CA%BByicha%20amalga%20oshiriladi>.

transport mavjud bo'lsa, har 500 km uchun 1 sutka, agar, jamoat transporti bo'lmasa, yoki infratuzilma yaxshi bo'lmasa, har 100 km ga 1 sutka beriladi, lekin qanday vaziyat bo'lganda ham bu muddat 3 kun deb qat'iy belgilangan. Bu muddat jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan shaxslarga ham tadbiiq etiladi.

175-moddaaga muvofiq muddatlar uzaytirilishi mumkin, xususan:

1. Prokuror, xususiy taraflar, advokatlar agar avvalgi muddatga kutilmagan holatlar yoki fors-major tufayli rioya etmaganliklarini isbotlay olsalar, bu masala bo'yicha iltimosnoma kiritishlari mumkin, iltimosnoma, fors-major yoki kutilmagan holat tugagandan keyin 10 kun ichida topshirilishi kerak.

2. Qaror haqida o'z vaqtida xabardor qilinmagan ayblanuvchi yangi muddat berilishini iltimosnoma bilan e'tiro bildirishi mumkin.

3. Appellatsiya shikoyati yoki e'tiroz bildirish uchun yangi muddat berish to'g'risidagi ajrim ustidan faqat apellatsiya shikoyati yoki e'tiroz bo'yicha chiqarilgan yakuniy hukm bilan birga shikoyat qilinishi mumkin va boshqa vaziyatlar.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 314-317-moddalari²²muddatlarga bag'ishlangan.

Muddatlarni hisoblash ikkala qonunchilikda ham soatlar, kunlar, oylar va yillar bilan hisoblanadi va muddatning oxirgi kuni dam olish kuniga to'g'ri kelsa, muddat keying ish kuniga ko'chishi mumkinligi ikkala tizimda belgilangan. Faqat bitta farqi shundaki bu qism O'zbekiston tizimida qamoqda saqlash yoki ushlab turish ishlamaydi, Italiya tizimida esa bunday qoida yo'q bizda ushlab turish yoki qamoqda saqlashning har bir soati aniq hisoblanadi. Tepada keltirdim ya'ni masofaga qarab muddatlar uzaytirilishi mumkin, lekin bizning tizimda bunday norma belgilanmagan, bizda bu uzrli sabab sifatida ko'rib 317-moddaga muvofiq muddat tiklanishi mumkin. Ikkala tizimda ham uzrli sabab tufayli muddat uzaytirilib yuborilsa, uni tiklash holati keltirilgan, Italiya tizimida har bir tarafga har bir bosqichda bir marta yangi muddat berilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Ikkala tizimda ham muddatga rioya etilgan deb hisoblash bir xil qoida bor ya'ni sud devonxonasi ga hujjatlar topshirilishi ish vaqti tugashi bilan bilan hisoblanadi, agar pochtaga topshiriladigan bo'lsa, 24:00 gacha bu bizning tizimizda.

O'zbekiston respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 301-moddasiga ko'ra oqlov hukmi va kodeksning 83-mddasida tutilgan holatlar ya'ni aish qo'zg'atilgan va tergov harakatlari yoki sud muhokamasi o'tkazilgan ish bo'yicha jinoiy hodisa yuz bermagan bo'lsa, uning qilmishida jinoyat tarkibi bo'lmasa, uning sodir etilgan jinoyatga daxli bo'lmasa²³. Reabilitatsiya asosida shaxs qonunga xilof ushlab turilgani, ehtiyot chorasi sifatida qamoqda saqlangani, ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilingani tufayli vazifasidan

²² <https://lex.uz/mact/-111460?ONDATE=01.04.1995%2000#-253758~:text=314%2Dmodda.%20Muddatlarni,to%CA%BBxtatib%20turilishi%20mumkin.>

²³ <https://lex.uz/mact/-111460?ONDATE=01.04.1995%2000#-253758~:text=83%2Dmodda.%20Reabilitatsiya,jinoyatga%20daxli%20bo%CA%BBlmasa.>



qonunga xilof ravishda chetlashtirilgani yoxud tibbiy muassasaga qonunga xilof ravishda joylashtirilgani natijasida yetkazilgan mulkiy zararni undirish hamda ziyon oqibatlari bartaraf etilishini talab qilish huquqiga ega, bundan tashqari nafaqa olish, uy-joydan foydalanish va boshqa huquqlari ham tiklanishi lozim. Italiya kodeksining 314-moddasida ham jinoyat yuz bermaganligi, shaxsning unga aloqador emasligi, qilmishda jinoyat tarkibi yo'qligi yoki qilmish qonun bilan jinoyat deb hisoblanmasligi sababli yakuniy hukm bilan oqlangan har qanday shaxs, agar u qasddan yoki ehtiyotsizlik orqali ushbu choralarning qo'llanilishiga sabab bo'lmagan bo'lsa, ehtiyot chorasi sifatida qamoqda saqlangan davri uchun odilona va belgilangan tartibda kompensatsiya olish huquqiga ega. 315-modda esa Kompensatsiya olish bo'yicha ariza berish tartibi keltirilgan ya'ni hukm yoki ishni tugatish haqidagi qaoro qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab ikki yil ichida topshirilishi kerak. Agar ushbu muddat o'tkazib yuborilsa, ariza qabul qilinmaydi. Kompensatsiya miqdori esa 516 456.90 yevrodan oshmasligi kerak. Sud xatosi natijasida yetkazilgan zararni qoplash haqidagi qoidalar, agar ular ushbu holatga mos kelsa, qo'llaniladi. Bizda ham talab qilish muddati ajrim yoki qaror chiqarilgan paytdan e'tiboran ikki yil mobaynida talab qilishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual Kodeksiga ko'ra, chiqimlar ro'yxati batafsil va tartib bilan keltirilgan, ular jumlasiga ekspertiza xarajatlari, ashyoviy dalillarni saqlash, qidiruv xarajatlari, vediokonferensaloqa xarajatlari va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Italiyada ham 535-moddasiga muvofiq tarkib o'xshash lekin, men duch kelgan bitta farq mahkumning qamoqdagi ta'minoti masalan, ovqat yoki joy bilan bog'liq bo'lishi mumkin, shu kabi xarajatlar mahkumning o'zini hisobidan amalga oshiriladi, bizda esa bu chiqimlar davlat hisobidan bo'ladi. Italiya tizimi bo'yicha chiqimlarni kim to'laydi? Albatta, bu mahkum zimmasiga yuklanadi, lekin agar shikoyat qaytarib olingan bo'lsa, uni shikoyat qilgan shaxs to'laydi. O'zbekistonda bu tizim ancha moslachuvcchan qilib ishlab chiqilgan ya'ni agar mahkuning mulkiy ahvoli yaxshi bo'lmasa, chiqimlarni to'lashga qodir bo'lmasa sud uni to'lovdan ozod qilishi mumkin, bundan tashqari tarjimonga to'lanadigan pulni davlat to'laydi, chunki bu uni huquqi, konstitutsiyada ham belgilab qo'yilgan bu huquq, shu sababli har qanday holatda ham tarjimonga to'lanadiga pul mahkumdan undirilmaydi. Voyaga yetmaganlar uchun esa ularning ota-onalari javobgar bo'ladi. Italiya tizimida 133-moddaga muvofiq, guvoh yoki ekspert kelmasa sud ularga 51 yevrodan 516 yevroga jarima solishi mumkin, bizda ham 320-moddaga muvofiq surishtiruvchi, tergochi yoki sud protsessining boshqa ishtirokchilari uzrsiz sababalarga ko'ra kelmasa chiqimlar o'sha shaxslardan undiriladi.

Ushbu tepadagilardan xulosa qilib bir **taklif** bermoqchi edim, ya'ni yuqrida keltirib o'tganimdek, Italiya protsessual kodeksining 319-moddasiga muvofiq, ayblanuvchi garov evaziga mulkni xatlovdan chiqarish mexanizmi mavjud, ya'ni agar garovning miqdori xatlanayotgan mulkning qiymatiga teng bo'lsa unda sud xatlashni bekor qilishi mumkin. Bu qanday ishlaydi Italiyada sud ish doirasida zararni qoplash uchun ayblanuvchining mashinasi yoki uyini xatlashga qo'ydi deylik, lekin ayblanuvchi menga mashina yoki uy kerak, uning o'rniga bank hisobiga o'sha mulk qiymatiga teng pulni garov sifatida qo'yadi, sud agar

garovni yetarli deb topsa, mulkni xatlovdan chiqaradi, zarar o'sha garovga qo'yilgan mulkdan foydalanadi, mulk esa egasida qoladi. Bundan kelib chiqib taklif quyidagicha: ayblanuvchi xatlangan mulkning qiymatiga mutanosib ravishda pul mablag'larini garov sifatida taqdim etgan taqdirda, sud mulkni xatlovdan chiqarishi kerak. Lekin bu tizim ishlashi uchun garov qiymati qat'iy belgilangan bo'lishi kerak, ya'ni garov taklif etilganda, xatlangan mulkning bozor qiymati mustaqil baholovchi tashkilot tomonidan aniqlanishi kerak, garov so'mmasi yetkazilgan zarar miqdoridan va musodara qilinadigan mulk qiymatidan kam bo'lmasligi kerak. Bunda ayblanuvchi xatlangan mulk o'rniga garov taklif qilib iltimosnoma kiritadi sud esa uni masalan 48 soat ichida ko'rib chiqadi va garovning yetarli va mos ekanligini ko'rib chiqib ilimosnomani qanoatlantirish yoki rad etish bo'yicha ajrim chiqaradi. Pul mablag'lari esa sudning maxsus deposit hisob raqamiga o'tkaziladi. Mablag' kelib tushgandan keyin esa ashyoviy dalil yoki xatlangan mulk egaligiga qaytariladi. Italiya tizimida agar ayblanuvchi garovni taklif qilsa sud majbur xatlovni bekor qilishga. Bu qanday natija berishi mumkin, aytaylik tadbirkorning zavodi bor unga xatlov e'lon qilindi, lekin u shu zavod qiymatiga va yetkazilgan zararga mos pul topdi va sudga xatlashni bekor qilish bo'yicha iltimosnoma kiritishi mumkin, agar zavod xatlanmasa masalan, u yerda ishlayotgan odamlar ishsiz qolmaydi, texnika va bino band bo'lmaydi ish jarayoni davom etadi, iqtisodiyotga ijobiy natija berishi mumkin. Bundan tashqari davlat uchun xatlangan mulkdan ko'ra pul mablag'i ko'proq foyda keltiradi deb o'ylayman, chunki vaqt o'tishi bilan mulkning qiymati tushishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual kodeksi

<https://lex.uz/mact/-111460>

Italy criminal code of procedure

<https://canestrinilex.com/assets/Uploads/pdf/cf70b10e21/Italian-Code-of-Criminal-Procedure-canestriniLex.pdf>